NAMANGAN VILOYATI YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-oktabr | 595-6-90-Q/24 | Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-sentabrdagi “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” PQ–342-son qarori ijrosi haqida” 460-6-0-Q/24-sonli qaror ijrosini tumanda ta’minlash haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-sentabrdagi PQ–342-son qarorini viloyatda ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-sentabrdagi PQ–342-son qarori ijrosi haqida” 460-6-0-Q/24-sonli qaror rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2024-yil 18-iyulda Toshkent shahrida imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘rtasida Qirg‘iz Respublikasi Issiqko‘l viloyati hududida joylashgan kurort-rekreatsiya xo‘jaligi obektlari to‘g‘risidagi bitim tasdiqlanganligi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ushbu xalqaro shartnomaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari bajarilganligi hamda uni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida Qirg‘iziston tomoniga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirganidan keyin uning qoidalari amalga oshirilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni ta’minlashi belgilanganligi e’tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari – investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i S.Ikramov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**